

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMiy DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/30.01.2021.I.I.16.03 RAQAMLI ILMiy KENGASH
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

SALIMOV BEKZOD BAXTIYOROVICH

**KICHIK BIZNES KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI
RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY ASOSLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам

Dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on economic Sciences

Salimov Bekzod Baxtiyorovich

Kichik biznes korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishning
tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish..... 3

Салимов Бекзод Бахтиерович

Совершенствование организационно-экономических основ развития
инновационной деятельности предприятий малого бизнеса..... 27

Salimov Bekzod Bakhthiyorovich

Improving the organizational and economic foundations for the
development of innovative activities in small business enterprises..... 53

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 59

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/30.01.2021.1.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

SALIMOV BEKZOD BAXTIYOROVICH

KICHIK BIZNES KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI
RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY ASOSLARINI
TAKOMILLASHTIRISH

08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida raqobatning kuchayib borishi, raqobatbardosh mahsulot va xizmatlarga talabning ortib borishi sharoitida har qanday iqtisodiy tizimning barqaror rivojlanishi innovatsion faoliyat bilan bog'liq. Innovatsion faoliyat davlatlarning raqobatbardoshligini oshiradi va barqaror rivojlanishning asosini tashkil etadi. Xalqaro darajada davlatlarning innovatsion rivojlanishi ilmiy-tadqiqot ishlariga sarflarning YalMdagi ulushi bilan belgilanadi. Bu ko'rsatkich bo'yicha etakchi davlatlarga quyidagilar kiradi: Janubiy Koreya (ilmiy-tadqiqot ishlariga sarf YalMning 4,93 %ni tashkil qiladi), AQSh (3,46 %), Shveysariya (3,42 %), Shveysariya (3,36 %), Yaponiya (3,30 %), O'zbekistonda bu ko'rsatkich 0,16 %ga teng¹. Lekin Jahon intellektual mulk tashkiloti (VIOS) bergan ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlari ichida Hindiston va Eron davlatlari qatorida yaxshi innovatsion rivojlanayotgan davlat hisoblanadi².

Hozirgi vaqtda kichik biznes korxonalari (KBK) mamlakatlarning barqaror innovatsion rivojlanishi, aholining bandligini ta'minlash, raqobat muhitini shakllantirishda muhim o'rinni egallab kelmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda YalMning tarkibida KBKning ulushi 50 foizdan yuqori, bandlarning 60 foizdan ko'prog'i shu sohaga to'g'ri keladi³. Iqtisodiyot va hududlarning innovatsion rivojlanishida KBKda innovatsion faoliyatni yo'lga qo'yilishi muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Hududlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi va innovatsion imkoniyatlari KBKning innovatsion rivojlanish salohiyatini oshiradi.

Xalqaro iqtisodiy integrallashuv sharoitida hududlarning iqtisodiy va innovatsion imkoniyatlarini baholash orqali KBKda innovatsion faoliyatni rivojlantirish va raqamli platformalardan foydalanish kabi masalalar ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish yo'lga qo'yilishida hududlarning iqtisodiy va innovatsion salohiyatidan kelib chiqib, KBKda innovatsion faoliyatni rivojlantirishga davlat tomonidan katta ahamiyat berilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining "Iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish, sanoat korxonalari va ilm-fan muassasalarining kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish" nomli 51-maqasida "Innovatsion hududga aylantirilayotgan tumanlarda mavjud analoglardan 50 foizgacha arzonlashtirilgan va sifatli, xomashyo narxiga nisbatan 2-3 baravar yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalarini o'zlashtirish, shu jumladan, umumiy qiymati 165,9 milliard so'mlik jami 195 ta loyihani amalga oshirish"⁴ vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirish hududlarning iqtisodiy va innovatsion rivojlanganlik indeksini aniqlash, KBKning hududlar kesimida innovatsion salohiyatini hududlarning innovatsion salohiyatidan kelib chiqib integral baholash,

¹ <https://gtrmarket.ru/ratings>research-and-development...>

² Jaceasa, 29-09-2022 PR/2022/895. <https://www.wipo.int/portal/news>

³ <https://www.worldbank/article/0016.org/en/topic/sme/finance>

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2018-yil 21-sentyabrda PF-5344-son qarori.

Fan doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/Iqt1384 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezюме)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.itsue.uz) va «Ziynet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Kasimov Azamat Abdulkarimovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentalar: Kasimova Fotima Tulkunovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Gafurov Ubaydullo Vaxabovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat Texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2021/I.16.03 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil «9» Dekabr soat 16 daqiqa (Manzil: 100000 Toshkent shahri, I.Karimov ko'chasi, 49-uy, Tel.: +99872-239-28-72, faks: +99872-239-01-49, (99871)239-43-51. e-mail: tsue@itsue.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (Manzil: 100003, Toshkent shahri, I.Karimov ko'chasi, 49-uy, Tel.: +99872-239-28-72, faks: +99871-239-43-51, e-mail: tsue@itsue.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «1» Dekabr kuni tarqatildi.
(2025 yil «1» Dekabr daqiqa 65 raqamli reestr bayonnomasi)



O. Q. Abduraxmanova
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash a'zosi, f.f.d., professor

O.Dj. Djurabayev
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash a'zosi, f.f.d., professor

Sh.A. Allayarov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash a'zosi, f.f.d., professor

integral baholarga asoslanib KBKda innovatsion faoliyatni hududlar kesimida rivojlantirish, ekonometrik modelllar asosida KBK tomonidan ishlab chiqariladigan innovatsion tovarlar, ishlar va xizmatlar hajmining o'rtacha muddatli oralig'ida o'zgarish tendentsiyalarini baholash kabi ilmiy-uslubiy masalalarning tadqiq etilishini taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2018 yil 21 sentyabrda PF-5544-son "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020 yil 2 martdagi PF-5953-son "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida, 2020 yil 29 oktyabrda PF-6097-son "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonlari, 2019 yil 20 noyabrda PF-4525-son "Mamlakatda biznes muhitini yanada yaxshilash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018 yil 7 maydagi PQ-3698-son "Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Kichik biznes korxonalari innovatsion faoliyatining nazariy asoslari va amaliy jihatlari, kichik biznesni strategik rivojlantirish, innovatsiya va innovatsion ishlanmalarni yaratish, ishlab chiqarish jarayoniga tatbiq etish orqali korxonalar raqobatbardoshligi va faoliyati samaradorligini oshirish masalalari bo'yicha Y.A.Shumpeter, S.V.Valdaytsev, N.N.Molchanov, K.Petsoldt, S.E.Jura, G.I.Gumerova, E.Sh.Shaymiev, E.V.Bulanova, N.S.Somenkova, N.A.Yagunova, T.N.Kosheleva, Fan Tsin, Sh.Peygon, Yan Dondon, Yan Shchiaotsin, Yu.V.Karpchenko, A.V.Balishiev, E.S.Zinoveva, A.L.Axtulov, S.V.Andrich, L.N.Axtulova, C.Freeman singari olimlar ilmiy tadqiqot olib borganlar⁵.

⁵ Шумпетер Й.А. Экономические циклы / Й.А. Шумпетер. – М.: Неон, 1996. – 156 с.; Жура С.Е. Малый бизнес в инновационной деятельности Российской Федерации: проблемы и пути их решения // Вестник ПАГС. 2014. №2. С.90-98.; Ваддайев С.В. Малое инновационное предпринимательство: учеб. пособие / С.В. Ваддайев, Н.Н.Молчанов, К.Пецольдт. – М.: Проспект, 2015. – 536 с.; Буланова Е.В., Соменкова Н.С., Ягунова Н.А. Формирование стратегии развития малого инновационного предпринимательства промышленного комплекса. // Журнал «Вопросы инновационной экономики». Том 9. № 2. Апрель-июнь, 2019.; Гумерова Г.И., Шаймиева Э. Ш. Анализ управления технологическими инновациями на промышленных российских предприятиях: источники финансирования, инновационная стратегия. // Актуальные проблемы экономики и права. 2012. №3 (23). С.93-103.; Косматка Т. Н. Стратегия развития малого инновационного предпринимательства. – СПб: ГУАП. 2009. с.5; Фан Цин, Анализ стратегии имитационной инновации. Издательство университета Цинхуа науки. 2010.; Пэйгон Ш. Теория и практика имитационной инновации. Радиальное мышление имитационной инноваций малого и среднего бизнеса в Китае. Технологическое развитие предприятия. 2011, № 12.; Кардаш И.Н. Проблемы среднего

Kichik biznes korxonalarning innovatsion rivojlanishini ta'minlovchi infratuzilma va uning muhim tizimosti elementlari – texnopark, biznes-inkubator, axborot va vechur moliyalashtirish fondlarini rivojlantirish masalalari bo'yicha B.C.Lazarev, N.Lapin, Lyu Syaotszyuan, E.Zemskaya, A.Kashirin, S.Luzan, O.P.Molchanova, Ya.Sergienko, L.G.Rudenko, A.E.Matyuxov, V.G.Varnavskiy va N.N.Lebedeva ilmiy tadqiqot olib borganlar⁶.

O'zbekistonda MB korxonalarini innovatsion rivojlantirish, raqobatbardoshligini oshirish, korxonalarda innovatsion jarayonlarni tashkil etish va boshqarishning nazariy-uslubiy jihatlari S.S.G'ulomov, Sh.I.Otajonov, U.V.G'afurov, E.Gorlova, F.Zairova, A.Kadirov, S.Sevlikyants, N.Mirzaraximova, M.Matchonov, H.T.Muhtidinov, R.Nurimbetov va boshqalarning ishlarida tadqiq etilgan⁷. Yuqoridagi xorijiy olimlarning tadqiqotlari muhim ilmiy-uslubiy asos

обеспечения вопросов стимулирования и поддержки инновационной ГУАП. 2009. с.5; Атапина Н.В. Сравнительный анализ методов оценки рисков и подходов к организации риск-менеджмента // Молодой ученый. - 2013. - № 5; Афонина Е.В. Роль малого бизнеса в инновационном развитии экономики // Интернет-журнал Науковедение. 2013. №6 (19). С.6; Балашев А.В., Зинювская Е.С. Стимулирование развития науки и инноваций в США: политика в отношении малых фирм (на примере программы содействия инновационным исследованиям малого бизнеса (SBIR)) // Вестник ЦГУ. 2013. №4. С.292-300; 35. Титов Б. Сектор малого и среднего предпринимательства: Россия и Мир. Институт экономики роста им. Столыпина П.А. июль, 2018. Электронный ресурс, <http://stolypin.institute/hovosti/sekto-r-malogo-i-srednego-predprinimatelstva-rossiya-i-mir/> Roy Rothwell. The Changing Nature of the Innovation Process // Technovation. 1 Jan. 1993; Пер, обработка А. Сенина – Электронная версия, 2001 // <http://technopark.al.ru/business/innovation/innovation.htm>.

⁶ Варнавский В.Г. Государственно-частное партнерство: теория и практика [Текст] / В.Г. Варнавский, А.В.Клименко, В.А.Корольев. – М.: Издательский дом Государственного университета Высшей школы экономики, 2010. – 287 с. Малый и средний бизнес как фактор экономического роста России / Ин-т экон. политики им. Е.Т. Гайдара. – М.: Изд-во Ин-та Гайдара. 2019. – 308 с.; ил. – (Научные труды / Ин-т экон. политики имени Е.Т. Гайдара; № 178Р). – ISBN 978-5-93255-548-4; Петит Д.А., Николаева Е.В. Инновационной инфраструктуре региона. Дисс., к.э.н. – Вологда, 2010 г. 153с.; Жетисаева Д.А., Николаева Е.В. Кампа А. Сравнительный анализ критериев отнесения предприятий к малому и среднему бизнесу в разных странах // Стратегия бизнеса. 2015. Т. 9. № 17. Инфраструктура поддержки малого инновационного малого инновационного предпринимательства. // Инновации и предпринимательство. <http://www.innovbusiness.ru/content/>; Мурашова Н. Развитие методологии обеспечения инновационной деятельности экономических систем. 08.00.05-экономика и управление народным хозяйством (управление инновациями). Диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук. Нижний Новгород-2020; Каширин А. Бизнес-ангелское инвестирование – перспективный источник получения высоких доходов / А.Каширин, А.Семенов // Рынок ценных бумаг, 2007. - № 2. - С. 34-36.; Барковская, В.Е. Методологические аспекты оценки инновационной деятельности малых предприятий в наукоградах / В.Е. Барковская // Вестник Астраханского государственного технического университета. Серия: Экономика. – 2020. – № 3 – С. 27-34. Санникова, И.Н. Оценка инновационного потенциала предприятия для управления развитием / И.Н. Санникова, Э.В. Татарникова // Менеджмент в России и за рубежом. – 2017. – № 3. – С. 57-64.; Ключкова Н.В., Бердичевская В.О. Развитие инновационной деятельности: обогащение зарубежного опыта. <https://cyberleninka.ru/article/n/razvitiye-innovatsionnoy-deyatelnosti-obogashcheniye-zarubezhnogo-opyta/viewer>; Веселовский, М.Я. Управление инновационным процессом и особенностями внедрения инноваций / М.Я. Веселовский, А.В. Никонорова // Вопросы новой экономики. – 2014. – Т. 30. – № 2. – С. 60-67.; Стрижкова Е.Н., Стрижкова Д.В. Развитие инновационной деятельности в российском федерации: проблемы и перспективы / Экономика науки. 2023. Т. 9. №2. С.31-44.; Стратегия инновационного развития: национальная инновационная система / Н. Лапин // Проблемы теории и практики управления, 2008. – № 5. – С. 106-118.; Молчанова, О.П. Технологические структуры О.П.Молчанова. Режим доступа: <http://molchanova.spa.msu.ru/>; Сладков С.Л. Стратегия развития инновационного малого предпринимательства. Дисс., к.э.н. – М. 2011г. 176 с. Руденко Л.Г. Механизмы инфраструктурной поддержки развития малого инновационного предпринимательства. // Вестник университета №1, 2019. <https://vestnik.uu.ru/article/16banizm-innovatsio-...>; Лю Сюэлюэан. Автореферат диссертации, к.э.н. – Минск, 2020г. – 24 с.;

⁷ Туломов С.С., Оглезков Ш.И. Узбекистан к чужим бизнес субъектам инновацион факультет башкарув механизминини такомиллаштириш: Икитисод фанлари номзоди. дис.автореф. – Т., 2010. – 276.; Гобуров У.

hisoblansa-da, ularda muayyan davlatlar sharoitidan kelib chiqib, tadqiqotlar olib borilgan. Mahalliy olimlarning tadqiqotlarida kichik biznes korxonalarini innovatsion rivojlanishda imitatsion innovatsiyalardan foydalanish, hududlarning iqtisodiy va ilmiy salohiyatini e'tiborga olish va innovatsion faoliyat uchun mutaxassis kadrlar tayyorlash masalalari mustaqil tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmaganligi tanlangan tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilab, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishni taqozo etadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FM-1 "O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozlashning ilmiy-metodik asoslari va usullarini takomillashtirish" yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Kichik biznes korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotning maqsadi.

Tadqiqotning vazifalari:

kichik biznes korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirishning nazariy jihatlarini o'rganish;

innovatsion faoliyatni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashning xorij tajribasini o'rganish asosida ularning ijobiy jihatlaridan O'zbekiston sharoitida foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

mamlakatimizda kichik biznes korxonalarining hozirgi holatini tahlil etish;

kichik biznes korxonalarining hududiy-innovatsion salohiyatini baholash;

kichik biznes korxonalarining innovatsion faoliyati uchun kadrlar tayyorlash bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

kichik biznes korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishda hududlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi va innovatsion infratuzilma salohiyatini integral baholashga ko'ra hududlar kesimida kichik biznes korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

kichik biznes korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulot, xizmatlar, ishlar hajmi va eksport hajmini 2030 yilgacha prognoz qilish va natijalarini tahlil etish orqali takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti bo'lib hududlar kesimida innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi kichik biznes korxonalarini hisoblanadi.

Инновацион гоҳлари амаиёга жорий этишда кичик бизнес иштирокини фойдалантириш. // Иқтисод ва молия. – Тошкент, 2012. – №2, 17-23-б.; Горюнова Е. Развитие высокотехнологичных производств на базе инноваций. // Бюрократ, 2012. – №2. – С. 30-34; Зайрова Ф. Подготовка рабочих кадров и повышение их квалификации как фактор инноваций в отраслях промышленности. // Бюрократ Эксперт. – Тошкент, 2010. – №8. С. 57-63; Кадыров А., Сеппиян С. Трансферт технологий и его влияние на повышение конкурентоспособности национальной экономики // Бюрократ, 2010. – №4. – С. 38-40; Курбанова Д. Перспективы формирования инновационных кластеров в Узбекистане. // Бюрократ, 2011. – №1. – С. 41-45; Марочнов М. Воздействие инвестиций на формирование аграрной сферы инновационного типа // Бюрократ Эксперт. – Тошкент, 2010. – №4. – С. 61-63; Мухитдинов Х.Т. Узбекистанда инновацион индустриализацияни ривожлантиришнинг ташкилий-иқтисодий механизмини шакллантириш // Бюрократ Эксперт. – Тошкент, 2011. – №5. 45-47-б.; Нуримуратов Р., Кулмуратов Б. Инновацион бошқариш стратегиясининг аҳамияти. // Жамият ва бошқару. – Тошкент, 2010. – №. 73-75-б.

Tadqiqot predmetini hududlar kesimida kichik biznes korxonalarida innovatsion faoliyatni imitatsion innovatsiyalar asosida rivojlanishga oid ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar yig'indisi tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida ilmiy mushohada, tanlanma, iqtisodiy indeks, guruhlash, korrelyatsion, regressiya tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "kichik biznes korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish" tushunchasi kichik biznes korxonalarini imkoniyatlari, hududlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi, innovatsion infratuzilma elementlarining integral ta'siridan kelib chiqib takomillashtirilgan va korxonalarni "kichik korxona", "o'rta korxona" va "mikrofirma" biznes toifalariga kiritishda tovar aylanmasi mezonidan tashqari ishchilar soni mezonini kiritish asoslangan;

hududlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi, innovatsion infratuzilma elementlari va kichik biznes korxonalarining innovatsion salohiyatini ifodalovchi umumiy integral indeks ko'rsatkichlari bo'yicha hududlar reytingi "Eng yuqori indeks" 146,4; "Yuqori indeks" 30,4-37,3; "O'rta indeks" 22,0-25,4; "Quyi indeks" 13,8-18,6; sifatida aniqlangan va bunga ko'ra kichik biznes korxonalarining hududlar kesimida yuqori texnologik, o'rta yuqori, o'rta texnologik va quyi texnologik mahsulotlarni ishlab chiqarish, va imitatsion innovatsiyalardan foydalanish taklif etilgan;

kichik biznes korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun kadrlarni tayyorlashda bakalavr va magistratura dasturlarida "Biznesning rivojlanishini boshqarish", "Innovatsion menejment", "Biznes informatika" fanlarini rivojlantirish, "Sun'iy intellektni boshqarish", "Loyihaviy tahlil", "Yashil texnologiya" va "Dasturlash" fanlarni o'quv dasturlariga kiritish tayyorlanadigan kadrlarning malakaviy kompetentligini oshirishi asoslangan;

Kichik biznes korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishda imitatsion innovatsiyalardan foydalanish hamda imitatsion innovatsiyalardan foydalanish algoritmi bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

korxonalarini kichik biznes, o'rta biznes va mikrofirmalar kabi toifalarga kiritishda ikkinchi mezon sifatida ishchilar soni mezonining kiritilishi asoslangan;

kichik biznes korxonalarining yuqori texnologik, o'rta texnologik va quyi texnologik mahsulot hududlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi, innovatsion imkoniyatlariga bog'liqligi asoslangan va hududlarning rivojlanganlik darajasini ifodalovchi umumiy integral indekslar aniqlangan;

kichik biznes korxonalarining moliyaviy imkoniyatlari cheklanganligini e'tiborga olib, xorij tajribasidan kelib chiqib, kichik biznes korxonalarini innovatsion faoliyatida imitatsion innovatsiyalardan foydalanish taklif etilgan;

ekonometrik modellar asosida kichik biznes korxonalarining iqtisodiy ko'rsatkichlari, xususan, jami mahsulot hajmi, innovatsion mahsulot va eksport mahsulot hajmi 2030 yilgacha prognoz qilingan;

kichik biznes korxonalarining innovatsion faoliyatida kadrlarni tayyorlashda o'quv dasturlariga kiritiladigan fanlar bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi. Tadqiqot natijalarining ishonchiligi tadqiqotni bajarishda umume'tirof etilgan usul va adabiyotlarning qo'llanilganligi, rasmiy axborot bazalaridan, xususan, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda xalqaro tashkilotlarning rasmiy saytlari ma'lumotlaridan foydalanilganligi, tadqiqot ilmiy yangiliklarining vakolatli davlat tashkilotlari tomonidan ma'qullanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, unda olingan nazariy, uslubiy natijalar kichik biznes korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishning nazariy asoslarini boyitadi va ulardan shu sohada bajariladigan ilmiy ishlarda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ishlab chiqilgan ilmiy taklif va tavsiyalardan respublikada kichik biznes korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish va prognozlashishda, hududlar kesimida kichik biznes korxonalarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish bo'yicha dasturlar ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Bakalavriat va magistraturada kichik biznesni rivojlantirish bo'yicha o'qitiladigan fanlarning dasturlarini yozishda, o'quv qo'llanmasi va darsliklar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kichik biznes korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

Kichik biznes korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishda imitatsion innovatsiyalardan foydalanish hamda imitatsion innovatsiyalardan foydalanish algoritmi bo'yicha takliflar Palata faoliyatida foydalanish uchun qabul qilingan. Bu takliflar kichik biznes va "Yashnobod" innovatsion texnopark faoliyatiga joriy qilingan. (O'zbekiston Sanoat palatasining 2025-yildagi 06-05-33-6903-son ma'lumotnoma). Bu "Yashnobod" innovatsion texnoparkning innovatsion faolligi oshishiga va imitatsion obektlarni samarali tanlashga imkon yaratdi.

Korxonalarni "mikrofirma" "kichik korxona" va "o'rta korxona" biznes toifalariga kiritishda tovar aylanmasi mezonidan tashqari ishchilar soni mezonini kiritish taklifi Palata faoliyatida foydalanish uchun qabul qilingan. Bu takliflar kichik biznes korxonalar faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston Sanoat palatasining 2025-yildagi 06-05-33-6903-son ma'lumotnoma), bu kichik va o'rta korxonalarida soliq bazasini qisqartirishni, hamda yashirin iqtisodiyotni oldini olishga olib keladi.

Kichik biznes korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun kadrlarni tayyorlashda bakalavr va magistratura dasturlarida "Biznesning rivojlanishini boshqarish", "Innovatsion menajment", "Biznes informatika" fanlarini rivojlantirish, "Sun'iy intellektni boshqarish", "Loyihaviy tahlil", "Yashil texnologiya" va "Dasturlash" fanlarini o'quv dasturlariga kiritish orqali kadrlarning malakaviy kompetentligini oshirishi bo'yicha taklifi Palata faoliyatida foydalanish uchun qabul qilingan. Bu takliflar Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining o'quv dasturlariga joriy qilingan (O'zbekiston Sanoat palatasining

2025-yildagi 06-05-33-6903-son ma'lumotnoma). Bu kichik biznes bo'yicha tayyorlanadigan kadrlarning kompetentligini oshirishga olib kelgan.

Hududlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi, innovatsion infratuzilma elementlari va kichik biznes korxonalarining innovatsion salohiyatini ifodalovchi umumiy integral indeks ko'rsatkichlari "Eng yuqori" 146,4; "Yuqori" 30,4-37,3; "O'rta" 22,0-25,4; "Quyi" 13,8-18,6; ko'rinishda aniqlangan va shunga ko'ra Toshkent shahrida yuqori texnologik mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish taklifi Palata faoliyatida foydalanish uchun qabul qilingan (O'zbekiston Sanoat palatasining 2025-yildagi 06-05-33-6903-son ma'lumotnoma). Bu takliflar Toshkent shahrida joylashgan kichik biznes korxonalar faoliyatiga joriy qilingan, bu toshkent shahridagi kichik biznes korxonalarida yuqori va o'rta texnologik mahsulotlarni ishlab chiqarishni kegayishga olib keldi va Yashnobod innovatsion texnoparkda 3D printerlar, robotlar, plastik to'lov kartalarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatitsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot natijalari bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan jurnallarda 4 ta ilmiy maqola (3 ta mahalliy, 1 ta xalqaro nashrlarda), 6 ta ma'ruza tezislari ilmiy-amaliy anjumanlarda aprobatitsiyadan o'tkazilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, jami 150-bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va ahamiyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, asosiy vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Kichik biznes korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishning nazariy asoslari**" deb nomlanib, unda O'zbekistonda korxonalar mikrofirmalari, kichik korxona va o'rta korxonalariga kiritish mezonlari tahlil qilingan, bu borada takliflar ishlab chiqilgan, "innovatsiya" va "innovatsion faoliyat" tushunchalarining iqtisodiy mazmun-mohiyati yoritib berilgan, kichik biznes korxonalarining innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlashning xoriy tajribasi o'rganilgan.

Dissertatsiyada qo'yilgan muammo nuqtai nazaridan "innovatsiya" deganda, KB subyektlari tomonidan yangi yoki takomillashgan uskuna, texnologiya, tovar, xizmatlar, boshqaruv usullari va boshqa yangiliklarni yaratish jarayonlari, ishlab chiqarish, boshqaruv, tijorat va boshqa jarayonlarning samaradorligini oshirishga,

KB subyektlarining raqobatbardoshligi, eksport salohiyati va tijoratdan olinadigan foydani oshirishga olib kelishi tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 10 fevralda "Tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-21sonli Farmoniga ko'ra⁸: mikrofirmalarga jami daromadi yil davomida 1 mlrd. so'mgacha bo'lgan tadbirkorlik subyektlari kiradi; kichik korxonalarga jami daromadi yil davomida 1 mlrd. so'mdan 10 mlrd. so'mgacha bo'lgan, ta'sisчилari yuridik shaxslar bo'lgan tadbirkorlik subyektlari kiradi; o'rta tadbirkorlik subyektlariga jami daromadi yil davomida 10 mlrd. so'mdan 100 mlrd. so'mgacha bo'lgan tadbirkorlik subyektlari kiradi.

Korxonalarini kichik biznes turlariga ajratishda bitta tavarlar aylanmasi mezonini qo'llash etarli emas, chunki kichik biznes korxonalari ishchilar sonini o'zgartirib, daromadni o'zgartirishi mumkin, bu soliq bazasini o'zgartirishga va yashirin iqtisodiyotni vujudga kelishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ishchilar soni mezon sifatida Mikrofirmalar uchun 10 tagacha, kichik korxonalar uchun 11 – 50 tagacha, o'rta korxonalar uchun 51 tadan 250 tagacha ishchilar sonini belgilash o'rinni deb o'ylaymiz, chunki bu mezon ko'rsatkichlari Yevropa Itifoqi davlatlari (27 ta davlat) tajribasiga asoslangan. Mikrofirmada aylanmadan 4% soliq to'lagandan keyin, ishchilar soni mezonini qo'ymasa ham bo'ladi, lekin umumiy holda qo'yilsa mantiqan to'g'ri bo'ladi, chunki u xohlaganicha ishchi olishi mumkin emas. Kichik va o'rta korxonalarda ishchilar sonini o'zgartirib, masalan, bir ishchining o'rta o'ylilik ish xaqi 6 mln. so'm bo'lsa, kichik korxona 51-ishchini ishga olsa, u bir yilda soliq bazasini 72mln. so'mga qisqartirishi yoki yashirin daromadga yo'l ochishi mumkin. Ishchilar soni mezonini buni oldini oladi.


Har qanday innovatsiya dinamik nuqtai-nazardan qaraganda, takrorlanib turadigan jarayon. Mahsulot, ish va xizmatlar birlamchi innovatsiyadan o'tgandan keyin ikkilamchi ... n-chi innovatsiyalardan o'tishi mumkin, bunga imitatsion innovatsiya deyiladi. Yaponiyada minglab mahsulotlar bir necha bor yangilanadi, modernizatsiya qilinadi.

Aytish joizki, olimlar har xil innovatsiya turlarini taklif qilgan. Innovatsiya klassifikatsiyasi uning xususiyatlaridan kelib chiqib belgilanadi. Bir qator olimlarning ishlaridan foydalanib, quyidagi klassifikatsiyani taklif qildik (1-rasm).

Innovatsion mahsulot, innovatsion jarayonning natijasi sifatida qaraydigan bo'lsak, unda innovatsion jarayon kompleks ketma-ket bosqichlardan iborat bo'lib, u bozor talabini qondiradigan yoki korxonaning amaliy faoliyatida foydalaniladigan innovatsion mahsulot yoki xizmatlarni ishlab chiqishdan boshlab, uni joriy qilish va sotishgacha bo'lgan jarayonlarni o'z ichiga oladi⁹. Bulardan tashqari, bu jarayonning tashkiliy-iqtisodiy xususiyatlari bo'lgan rag'batlantirish, moliyalashtirish va rejalashtirishni ham o'z ichiga oladi.

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-fevralda "Tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-21sonli Farmoni

⁹ Фирова, Н.В. Закономерности инновационного развития / Н.В. Фирова // Экономический анализ: теория и практика. – 2014. –Т. 369. – №17. – С. 13-22.



1-rasm. Innovatsiya turlari¹⁰

Biror innovatsion mahsulotni uning g'oyasidan tortib, tayyor mahsulot ishlab chiqarib, kommersializatsiya qilishni innovatsion faoliyat deb qarash maqsadga muvofiq.

Innovatsion salohiyatga muallif yondashuvi shundan iboratki, kichik biznes korxonasi innovatsion salohiyatini nafaqat korxonaning innovatsion salohiyati, balki korxona joylashgan hududda mavjud bo'lgan innovatsion infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi ham belgilaydi: biznes inkubator, texnopark, ilmiy

¹⁰ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.


tashkilotlar, universitetlar, texnologiya transferi, davlatning qo'llab-quvvatlashi va hokazo. Kichik biznes yuqoridagi aytib o'tilgan innovatsion infratuzilma elementlari bilan hamkorlikda ishlay, uning innovatsion salohiyati ortadi. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasi, deb qarash mumkin. Bu yerda asosiy ko'rsatkichlar bo'lib, YaHM, sanoat mahsuloti, xizmatlar, aholi daromadlari, jalb qilingan investitsiyalar va hokazo hisoblanadi. Rivojlangan hududlarda kadrlar salohiyati yuqori, kooperatsiya yaxshi rivojlangan, biznes bilan innovatsion infratuzilma elementlari o'rtasidagi hamkorlikni tez yo'lga qo'yish mumkin, innovatsion g'oyalari asosini tashkil etadigan ishlab chiqarish va xizmatlarda vujudga keladigan muammolarning paydo bo'lish intensivligi yuqori.

Fan va innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning har xil usullari mavjud. Obyektga ta'sir qilish turlariga qarab qo'llab-quvvatlash usullari to'g'ri-randan-to'g'ri va bilvosita turlariga ajratiladi. To'g'ri-randan-to'g'ri qo'llab-quvvatlash usullariga quyidagilarni kiritish mumkin: IITKlni (ilmiy izlanish va tajriba-konstruktorlik ishlari) byudjetdan moliyalashtirish, kreditlash, IITKlni kreditlashda foiz stavkasining ma'lum bir qismini subsidiyalash, ilmiy-innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun davlat uchastkalarini imtiyozli sharoitda foydalanishga berish va davlat buyurtmalari.

Bilvosita qo'llab-quvvatlash usullari davlatning maqsadlariga mos keladigan yo'nalishlarni qo'llab-quvvatlashga qaratiladi. Davlat KO'Brning innovatsion faoliyatini soliq chegirmalari: yangi uskuna qo'yiladigan kapital mablag'ga teng bo'lgan foyda solig'iga chegirma, IITKI sarfiga teng bo'lgan foyda solig'iga chegirma, innovatsiya uchun yaratilgan fondni soliqqa tortmaslik, foydani past stavkada soliqqa tortish. Bilvosita usullarga yana amortizatsiya orqali tartibga solish, kredit va moliyaviy siyosat, narx bo'yicha tartibga solish, soliq va amortizatsiya qonunlarini liberalashtirish kiradi. Ta'lim orqali qo'llab-quvvatlaydi: malakali kadrlarni tayyorlash, boshqaruv va maslahat xizmatlarini tashkil etish, ilmiy-texnik infratuzilmani yaratish va boshqalar. IITKlni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida respublikada ilmiy fondi tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Bu fondan respublikada olib boriladigan innovatsion loyihalar moliyalashtiriladi. Innovatsion loyihaning muhimligiga qarab, unga mablag' ajratiladi.

Dissertatsiyaning "Mamlakatimizda kichik biznes korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlanishining hozirgi holati tahlili" deb nomlanuvchi ikkinchi bobda hududlar kesimida 2024 yil 1-yanvar holatiga ko'ra hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik biznes korxonalar soni, faoliyat sohalari bo'yicha ko'rsatkichlari, KO'Brni sanoatni rivojlanishidagi o'rni, o'zlashtirilgan jami investitsiyalar hajmi, eksport qilingan tovarlar hajmi, ishlab chiqarilgan innovatsion tovarlar, ishlar, xizmatlar hajmi tahlil etilgan va mutaxassis kadrlar bilan ta'minlash masalalari urgangan. O'zbekistonda ham Yaponiya, Germaniya va Fransiyaning texnopark, biznes inkubatorlarida va boshqa innovatsion tashkilotlarida ishlab nafaqaga chiqqan yirik mutaxassislarni O'zbekistondagi texnoparklarga, innovatsion tashkilotlarga jalb qilish, ulardan foydalanish masalalari, kichik biznes korxonalarining innovatsion faoliyatini baholash usullari, Kichik korxonaga joriy etilgan innovatsion mahsulot yoki xizmatlardan olinadigan potentsial samaralar tahlil etilgan.

O'zbekistonda 2024 yil 1 yanvar holatiga ko'ra 417080 birlik kichik biznes subyektlari faoliyat yuritgan, shundan 86030 tasi yangi tashkil topgan va 2023 yil davomida 192550 tasi o'z faoliyatini to'xtatgan. Sanoatni rivojlanishda ham KO'Br muhim o'rin tutmoqda. Mamlakatimizda 2023 yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 176523,9 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilgan, bu jami sanoat mahsulotining 26,9% ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 122,5%ga oshgan. Kichik biznes korxonalari tomonidan 2023 yilda 7092,1 mln AQSh dollariga teng bo'lgan mahsulot eksport qilingan, bu jami eksportning 29,0 %ni tashkil etgan. Joriy yildagi eksport hajmi o'tgan 2022 yilda 6,2 mlrd AQSh dollariga teng bo'lgan eksport hajmiga qaraganda 23,8 % ga oshgan. Respublika bo'yicha 2022 yilda jami 40451615,7 mln so'mlik innovatsion mahsulot ishlab chiqarilgan va u YaHM ning 3,8 %ni tashkil qiladi, bu mahsulot tarkibida 2022 yidan innovatsion ishlarni amalga oshirgan fermer xo'jaliklari ma'lumotlari qo'shilgan. Kichik biznes korxonalari tomonidan 2022 yilda jami 11470102,1 mln so'mlik innovatsion tovarlar, ishlar va xizmatlar ishlab chiqarilgan va bu jami ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlarning 28,4 %ni tashkil etadi. Eng ko'p innovatsion mahsulot Toshkent shahriga to'g'ri keladi (5325948,3 mln so'm).



2-rasm. Innovatsion faoliyatni baholashda ko'p samaradorlik ko'rsatkichlari.¹¹

¹¹Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Kichik biznes korxonalarining innovatsion faoliyatini baholash juda dolzarb masala bo'lib, u korxonalarning kelajakda istiqbolli rivojlanishini ta'minlaydi, bozorda lider bo'lish imkoniyatini bildiradi. Bizning fikrimizcha, keltirilgan usullardan quyidagilaridan amaliyotda foydalanish maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz: sof keltirilgan daromad (NPV), daromadlilik indeksi (PI), ichki foyda normasi (IRR), diskontni hisobga olganda, qoplash muddati formulasi (DPP), rentabellik indeksi (ARR), investitsiyani qoplash indeksi (POI). Ushbu usullar innovatsiyalarni ishlab chiqarishga joriy etishni iqtisodiy nuqtai nazardan baholaydi. Bu usullar joriy qilinadigan innovatsion mahsulot va xizmatlarning moliyaviy parametrlarini hisob-kitob qilishda va baholashda muhim ahamiyatga ega.

Innovatsion faoliyatning samaradorligi to'g'risida qaror qabul qilishga ta'sir qiladigan muhim omillar 2-rasmda keltirilgan

Innovatsion faoliyatni amalga oshirishdan olinadigan foyda innovatsion mahsulotning raqobatbardoshligi bilan bog'liq, raqobatbardosh innovatsion mahsulot bozorda yaxshi sotiladi va u jami ishlab chiqarilgan mahsulotga ichki bozorda sotilgan va eksport qilingan innovatsion mahsulotlar hajmini bo'lish orqali aniqlanadi:

$$UMP = \frac{Q_{\text{ichki}} + Q_{\text{eks}}}{Q} \quad (1)$$

UMP – innovatsion mahsulot raqobatbardoshligi; Q_{ichki} – ichki bozorda sotilgan innovatsion mahsulot hajmi; Q_{eks} – eksport qilingan innovatsion mahsulotlar hajmi; Q – jami ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi. Kichik biznes korxonalarining UMP ko'rsatkichi qancha yuqori bo'lsa, ularning innovatsion mahsuloti shuncha ko'p sotiladi.

Innovatsion mahsulotni sotishdan olinadigan foyda π_{im} ichki bozordan va eksportdan olingan foydalar yig'indisiga teng:

$$\pi_{\text{im}} = (P \cdot Q_{\text{ichki}} - TC_{\text{ichki}}) + (P \cdot Q_{\text{eks}} - TC_{\text{eks}}) \quad (2)$$

Bu yerda TC_{ichki} , TC_{eks} mos holda, mahsulot ishlab chiqarishga ketgan va eksport qilingan tovarlarning yalpi xarajati.

Kichik biznes subyektlarining innovatsion salohiyatiga muallif yondashuvi shundan iboratki, kichik biznes korxonasi innovatsion salohiyatini nafaqat korxonaning innovatsion salohiyati, balki korxona joylashgan hududda mavjud bo'lgan innovatsion infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi, ilmiy-tadqiqot ishlarini va ishlanmalarni bajaruvchi tashkilotlar soni ham belgilaydi: biznes inkubator, texnopark, ilmiy tashkilotlar, universitetlar, texnologiya transferi, davlatning qo'llab-quvvatlashi va hokazo. Kichik biznes yuqorida aytib o'tilgan innovatsion infratuzilma elementlari bilan hamkorlikda ishlasa, uning innovatsion salohiyati yanada ortadi, natijada innovatsion faollik oshadi.

Respublika bo'yicha har bir ilmiy-tadqiqot ishlarini, ishlanmalarni bajaruvchi tashkilotga to'g'ri keladigan innovatsion mahsulot (tashkilotlarning o'rtacha unumdorligi) 154395,5 mln.so'mga teng (1-jadval). Ilmiy-tadqiqot ishlarni va ishlanmalarni bajaruvchi tashkilotlar soni 5ta bo'lishiga qaramay, tashkilotlarning eng yuqori unumdorligi Andijon (2091823,7mln. so'm) hududiga to'g'ri keladi,

demak bu tashkilotlarda yaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlar va ishlanmalarning xam unumdorligini yuqori deb aytish mumkin.

1-jadval
Hududlarning innovatsion mahsulot ishlab chiqarish salohiyatini ifodalavchi integral ko'rsatkichlar¹²

Hududlar	Har bir ilmiy-tadqiqot ishlarini, ishlanmalarni bajaruvchi tashkilotga to'g'ri keladigan innovatsion mahsulot mln. so'm	Har bir innovatsion mahsulot ishlab chiqaruvchi korxona va tashkilotga to'g'ri keladigan innovatsion mahsulot mln. so'm	Ilmiy-tadqiqot ishlarini, ishlanmalarni bajaruvchi tashkilotlarning unumdorligi indeksi	Innovatsion mahsulot ishlab chiqaruvchi korxona va tashkilotlarning unumdorligi indeksi	Hududlarni innovatsion mahsulot chiqarish salohiyati integral indeksi (4 va 5 ustunlar yig'indisi)
1	2	3	4	5	6
O'zbekiston Respublikasi	154395,5	8163,8	1,0	1,0	2,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	15569,5	667,3	0,1	0,1	0,2
Hududlar					
Andijon	1045911,8	66618,6	6,8	8,2	15,0
Buxoro	111277,9	5341,3	0,7	0,7	1,4
Jizzax	40612,2	582,3	0,3	0,1	0,4
Qashqadaryo	337592,9	3821,8	2,2	0,5	2,7
Navoiy	353927,2	5385,8	2,3	0,7	3,0
Namangan	67007,3	1264,3	0,4	0,2	0,6
Samarqand	157916,7	12672,3	1,0	1,6	2,6
Surxondaryo	51772,6	1617,9	0,3	0,2	0,5
Sirdaryo	101392,7	2358,0	0,6	0,3	0,9
Toshkent	104225,8	3146,4	0,7	0,4	1,1
Farg'ona	98779,4	1857,9	0,6	0,2	0,8
Xorazm	75572,4	2361,6	0,5	0,3	0,8
Toshkent shahri	115066,2	16989,6	0,7	2,1	2,8

Manba: O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida.

O'sha hududning innovatsion salohiyati yuqori deb aytish mumkin va shu hududda innovatsion mahsulot ishlab chiqarish yuqori bo'ladi. Jadvaldan ko'rish mumkinki, Andijon hududining innovatsion salohiyati juda yuqori (15,0), bu hududda ilmiy-tadqiqot ishlari, ishlanmalarning unumdorligi ham va innovatsion mahsulot ishlab chiqaruvchi korxona va tashkilotlarning unumdorligi ham yuqori.

Hududlarning innovatsion infratuzilma elementlari kichik biznes subyektlarining innovatsion salohiyatini kuchaytiradi. Hududlarning innovatsion infratuzilma elementlari bilan KBning hududlar kesimidagi innovatsion salohiyatining integral indeksini to'g'ridan-to'g'ri qo'shib Umumiy innvatsion integral indeks olamiz (2-jadval).

¹²Muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

Hududni innovatsion infratuzulma ko'rsatgichlari¹³

		Innovatsion infratuzulma va indeks ko'rsatgichlari				
		Oliy ta'lim muassalari	Nodavlat va xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari soni	Texnoparkl ar soni	Hududlarni innovatsion mahsulot ishlab chiqarish salohiyati integral indeksi	KBning hududiy innovatsion integral indeksi (3; 4; 5; 6 ustunlar yig'indisi)
1.	2	3	4	5	6	7
1	O'zbekiston Respublikasi	219	42	23	2	286
2.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	12	-	1	0,2	13,2
Viloyatlar						
3.	Andijon	11	1	1	15,0	28,0
4.	Buxoro	11	5	2	1,4	19,4
5.	Jizzax	5	1	1	0,4	7,4
6.	Qashqadaryo	11	3	1	2,7	17,7
7.	Navoiy	5	2	1	3,0	11,0
8.	Namangan	9	1	1	0,6	11,6
9.	Samarqand	15	1	1	2,6	19,6
10.	Surxondaryo	8	-	1	0,5	9,5
11.	Sirdaryo	3	-	1	0,4	4,4
12.	Toshkent viloyati	13	1	2	1,1	17,1
13.	Farg'ona	13	2	1	0,8	16,8
14.	Xorazm	8	2	6	0,8	16,8
15.	Toshkent shahri	95	23	3	2,8	123,8

Manba: O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida.

KBning hududiy innovatsion integral indeksi Toshkent shahrida eng yuqori (123,8). KBning hududiy innovatsion integral indeksi yuqori bo'lgan hududlarda kichik biznes korxonalarining innovatsion rivojlanish imkoniyatlari yuqori deb aytilish mumkin. Bunday hududlarga Toshkent shahridan boshqa Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo va Toshkent hududlarini kiritish mumkin. Bu hududlarda ham innovatsion infratuzulma elementlarini rivojlantirish orqali kichik biznes korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish maqsadga muvofiq.

“Hududlarning iqtisodiy va innovatsion infratuzulma elementlarining rivojlanganlik darajasiga ko'ra kichik biznes korxonalarining innovatsion faoliyatini imitatsion innovatsiyalar asosida rivojlantirish modeli” deb nomlanuvchi uchunchi bobda kichik biznes korxonalarining innovatsion faoliyati uchun kadrlar tayyorlash, KB korxonalari da innovatsion faoliyatni rivojlantirishda imitatsion innovatsiyalardan foydalanish, KBning hududiy innovatsion inkoniyati, hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasini va innovatsion infratuzulma elementlarini birgalikda ifodalovchi integral indeks kusatgichlarini aniqlash, ulardan foydalanib kichik biznes korxonalarini hududlar kesimida yuqori, o'rta va

¹³Muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

past texnologik mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan.

Korxonalar uzoq muddatli rivojlanishida foydani maksimalishtirishdan ko'ra kuproq rivojlanish salohiyatini, yani innovatsion salohiyatini oshirishga katta e'tibor qaratishi lozim. Korxonalarining muvaffaqiyatli strategik rivojlanish omili bo'lib, innovatsion menejment tizimi hisoblanadi. Bu tizim korxonada innovatsion faoliyatni rivojlantiradi, yangi mahsulot ishlab chiqarishni va bozorlarni yangi segmentga chiqishni ta'minlaydi. Innovatsion g'oyadan yangi mahsulot ishlab chiqish, ishlab chiqarishga joriy etish va tijoratlashtirish masalalari strategik masala bo'lib, u bir qator funksional strategiyalarni o'z ichiga oladi: bular marketing, moliyaviy, ishlab chiqarish, tashkiliy, ekologik va ijtimoiy strategiyalar. Korxonalarining innovatsion rivojlanishi bu strategiyalardan tashqari, inson kapitalini rivojlantirish va innovatsion salohiyatni oshirish strategiyalaridan foydalanishni ham taqozo qiladi. Inson kapitalini rivojlantirish strategiyasi eng ustivor strategiya hisoblanadi va u strategiyasiz boshqa strategiyalarni va shu bilan birga innovatsion salohiyatni shakllantirish va rivojlantirish strategiyasini ham amalga oshirib bo'lmaydi. Intelktual salohiyat inson kapitalining bosh hususiyati deb qaraladi. Intelktual salohiyat inson kapitali tarkibida shakllanadigan jami bilim va qobiliyat bo'lib, olgan bilimlari, qobiliyati, tajribasi, ko'nikmalari hisoblanadi va ularni harakatga keltirib, ulardan foydalanib aniq bir masalani echish yoki qo'yilgan innovatsion maqsadga erishish mumkin. Bu ishlarni amalga oshirish insondan juda katta aqliy va fizik energiyani sarflashni talab qiladi. Demak, korxonalarda innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun yuqori intellektual salohiyatga ega malakali kadrlar tayyorlash masalasi innovatsion salohiyatning belgilovchi elementi hisoblanadi. Talabalarining olgan bilim va ko'nikmalari yangi innovatsion g'oyalarni generatsiya qilish, bozor tomonidan qabul qilinadigan yangi mahsulotni ishlab chiqish va tijoratlashtirish uchun etarli bo'lishi bozor iqtisodiyotining kadrlarga bo'lgan talabini bildiradi. Bilim va malakaviy darajasi yuqori bo'lgan kadrlarga ega kichik biznes subyektlari innovatsion bozorda etakchilik mavqiega erishadi va bu kichik biznesni katta foyda olishiga olib keladi.

Kichik biznes uchun kadrlarni maqsadli tayyorlash bakalavriyat va magistraturaning ta'lim dasturlari bo'yicha amalga oshiriladi. O'quv dasturlarida “Biznesni boshqarish”, “Innovatsion menejment”, “Biznesni rivojlantirishni boshqarish”, “Servis”, “Biznes-informatika” fanlarini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega, va shu bilan birga malakaviy tayyorlash dasturlariga “Robototexnika”, “Sun'iy intellektni boshqarish”, “Loyihaviy faoliyat”, “Yashil texnologiya” va “Dasturlash” fanlarini kiritish ham kadrlarni malakaviy kompetentligini oshirishga olib keladi. Bu ishlarni professional darajada amalga oshirish, bilim darajasi yuqori bo'lgan professor-o'qituvchilarni tayyorlashni ham talab qiladi. Kichik biznes egalari va xodimlarini innovatsion faoliyat bo'yicha malakasini oshirish ham zarur hisoblanadi. Kichik biznes va kichik yangi malakaviy kompetentsiyaga ega bo'lishi uchun, ular tuman, viloyat, respublika va jahon miqyosida o'tkaziladigan “Eng yaxshi loyiha” va “Eng yaxshi innovatsion loyiha” ko'rik tanlovlarida qatnashishi maqsadga muvofiq.

Ko'pgina KB subyektlarining investitsiyaviy imkoniyatlari va innovatsion salohiyati cheklangan. Ma'lumki, original innovatsiyalar, birinchidan, ilmiy tadqiqot ishlariga katta xarajat talab qilinadi; ikkinchidan, yangi mahsulotni ishlab chiqish uzoq muddatni talab qiladi va uchinchidan, katta risk bilan bog'liq. Natija olinmasa, korxona katta talofatga uchraydi. Original innovatsiyalar yirik, moliyaviy baquvvat kompaniyalar tomonidan bajariladi. AQShning yirik kompaniyalari ilmiy-texnik salohiyati jihatdan jahonda etakchi hisoblanadi. Lekin statistik ma'lumotlarga ko'ra, ularning muvaffaqiyatga erishish ehtimoli 5 %ni tashkil qiladi¹⁴.

Agar amaliy izlanishlar bo'yicha qaralganda, 50% texnik muvaffaqiyatni, 30 % tijorat bo'yicha muvaffaqiyatni ta'minlaydi va faqat 12 % foyda olishga olib keladi¹⁵.

